TAOM KOMPONENTLI MAQOLLARNING LUG‘AVIY-MA’NOVIY XUSUSIYATLARI

D.A.Sultanova[1]

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti “Ingliz filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Mas'ul muallif: Sultanova Durdona Axmadjonovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti “Ingliz filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

e-mail: dsultanova268@gmail.com

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Sultanova, D. A. TAOM KOMPONENTLI MAQOLLARNING LUG‘AVIY-MA’NOVIY XUSUSIYATLARI / D. A. Sultanova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 171–175.

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi taom komponentli maqollarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari chog‘ishirma aspektda tadqiq etilgan. Taom nomlari ishtirokidagi maqollarning semantik tuzilishi, denotativ va konnotativ ma’nolari, metaforik hamda metonimik ko‘chimlari, milliy-madaniy mazmuni va baholovchi xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda non, osh, tuz, asal, bread, cake, egg, pudding kabi oziq-ovqat nomlarining maqollar tarkibida qanday semantik vazifalarni bajarishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: maqol, taom komponenti, leksik semantika, paremiologiya, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, metafora, metonimiya, lingvomadaniyat, milliy dunyoqarash, semantik ko‘chim, qiyosiy tahlil.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ С КОМПОНЕНТАМИ, ОБОЗНАЧАЮЩИМИ ПРОДУКТЫ ПИТАНИЯ

Аннотация. В статье исследуются лексико-семантические особенности пословиц с компонентами, обозначающими пищевые продукты, в английском и узбекском языках в сопоставительном аспекте. Анализируются семантическая структура, денотативные и коннотативные значения, метафорические и метонимические переносы, национально-культурное содержание и оценочные характеристики пословиц, содержащих названия блюд и продуктов питания. В исследовании выявляются семантические функции, которые выполняют такие лексические единицы, как non, osh, tuz, asal, bread, cake, egg, pudding в составе пословиц.

Ключевые слова: пословица, пищевой компонент, лексическая семантика, паремиология, денотативное значение, коннотативное значение, метафора, метонимия, лингвокультура, национальное мировоззрение, семантический перенос, сравнительный анализ.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF FOOD-RELATED PROVERBS

Abstract. The article examines the lexical-semantic features of food-related proverbs in English and Uzbek from a contrastive perspective. It analyzes the semantic structure, denotative and connotative meanings, metaphorical and metonymic transfers, national-cultural content, and evaluative characteristics of proverbs containing food names. The study identifies the semantic functions performed by food-related lexical units such as non, osh, tuz, asal, bread, cake, egg, and pudding within proverbs.

Keywords: proverb, food component, lexical semantics, paremiology, denotative meaning, connotative meaning, metaphor, metonymy, linguoculture, national worldview, semantic transfer, comparative analysis.

Kirish. Til xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning lug‘at tarkibida xalqning ko‘p asrlik tajribasi va hayotiy kuzatishlari muayyan leksik hamda frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Maqollar tarkibida qo‘llanadigan leksik birliklar oddiy nominativ vazifa bilan cheklanmay, muayyan madaniy tushunchalar, assotsiativ tasavvurlar va ramziy ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Bunday komponentlar orasida taom va oziq-ovqat mahsulotlarini bildiruvchi so‘zlar alohida o‘rin egallaydi. Chunki oziqlanish insoniyatning eng qadimiy biologik ehtiyojlaridan biri bo‘lishi bilan birga, jamiyatning iqtisodiy faoliyati, mehnat madaniyati, ijtimoiy munosabatlari va milliy urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Taom komponentli maqollar deganda tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, tayyor taomlar, taom masalliqlari yoki ovqatlanish jarayoniga oid leksik birliklar ishtirok etadigan, yaxlit mazmuni esa bevosita yoxud ko‘chma tarzda umumlashgan hayotiy xulosani ifodalovchi paremiologik birliklar tushuniladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Gap bilan osh pishmas” maqolida osh leksemasi real taomni anglatsa-da, maqolning umumiy mazmuni amaliy harakatning quruq so‘zdan ustunligini ifodalaydi. Ingliz tilidagi “Too many cooks spoil the broth” maqolida esa broth (sho‘rva, qaynatma taom) va cooks (oshpazlar) komponentlari orqali bir ishga ortiqcha va muvofiqlashtirilmagan aralashuvning salbiy oqibati obrazli ifodalanadi. Har ikki maqolda taom tayyorlash jarayoni insonning ijtimoiy

faoliyatini baholash vositasiga aylangan. Biroq ularning semantik yo‘nalishi va kommunikativ maqsadi bir-biridan farq qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Paremiologiya tilshunoslik va folklorshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, maqollarni ularning tuzilishi, mazmuni, kelib chiqishi, funksional xususiyatlari va milliy-madaniy ahamiyati nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Maqollarni semantik tahlil qilishda ularning yuzaki lug‘aviy tuzilishi bilan umumlashgan mazmuni o‘rtasidagi munosabatni aniqlash muhim ilmiy masala hisoblanadi. Ingliz paremiologiyasida Jennifer Speake tahriri ostida nashr etilgan “The Oxford Dictionary of Proverbs” (2015) alohida ahamiyatga ega. Mazkur lug‘atda ingliz tilida qo‘llanadigan maqollarning ma’nolari, tarixiy variantlari va ayrim qo‘llanish holatlari yoritilgan. Unda keltirilgan paremiologik materiallar ingliz xalqining kundalik turmush, amaliy tajriba, ehtiyotkorlik va ijtimoiy munosabatlar haqidagi qarashlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [2]. Ingliz maqollarini tarixiy-semantik aspektda tadqiq etishda F. P. Wilson tahriri ostida nashr qilingan “The Oxford Dictionary of English Proverbs” (1970) ham muhim manbalardan hisoblanadi. Ushbu asarda maqollarning tarixiy shakllari va adabiy qo‘llanishiga oid materiallar jamlangan bo‘lib, ular maqol komponentlarining semantik barqarorligi hamda tarixiy o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi [3].

O‘zbek paremiologiyasida T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqov tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” (2005) to‘plami katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu to‘plam xalq maqollarining mavzuiy rang-barangligi, leksik tarkibi va madaniy mazmunini tadqiq etish uchun asosiy manbalardan biridir [4]. O‘zbek xalq maqollarida taom va oziq-ovqat nomlari ishtirok etgan birliklar mehnat, rizq-ro‘z, qanoat, tejamkorlik, saxovat va insoniy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu esa taom komponentlarining semantik imkoniyatlari ularning asosiy lug‘aviy ma’nosidan ancha keng ekanligini ko‘rsatadi. Mavjud paremiologik tadqiqotlar maqollarning folklor, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalarni yoritishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Biroq taom komponentli maqollarni aynan leksik-semantik qatlam, ma’no ko‘chishi va milliy-madaniy assotsiatsiyalar uyg‘unligi asosida ingliz hamda o‘zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Taom komponentli maqollarning semantik tuzilishi ikki asosiy sath orqali namoyon bo‘ladi. Birinchi sath maqol tarkibida qo‘llangan so‘zlarning bevosita lug‘aviy ma’nolarini qamrab olsa, ikkinchi sath ushbu so‘zlar vositasida shakllangan umumlashgan, ko‘chma va baholovchi mazmunni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma” maqolida non leksemasi dastlab oziq-ovqat mahsuloti sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq maqolning umumiy mazmunida mazkur birlik insonning tirikchiligi, mehnat evaziga erishiladigan ne’mat va moddiy ta’minot tushunchalarini ifodalashga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi “Half a loaf is better than no bread” maqolida loaf (butun non, non bo‘lagi) va bread (non) komponentlari orqali mavjud imkoniyatdan oqilona foydalanish, oz miqdordagi natijani butunlay natijasizlikdan afzal ko‘rish g‘oyasi ifodalanadi. Mazkur maqollarni qiyoslash natijasida non va bread leksemalari har ikki tilda oziq-ovqat mahsuloti ma’nosidan tashqari, yashash uchun zarur ne’mat, iqtisodiy imkoniyat va inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida qo‘llanishi aniqlandi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi taom komponentli maqollar xalqning turmush tarzi, milliy mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari, mehnat faoliyati hamda axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi. Mazkur maqollar tarkibida qo‘llanadigan oziq-ovqat nomlari o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan tashqari, ko‘chma, ramziy, baholovchi va lingvomadaniy ma’nolarni ham ifodalaydi. Taom komponentlarining semantik imkoniyatlarini aniqlash uchun ularni leksik xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari nomlari. Ushbu guruhga o‘zbek tilidagi non, guruch, bug‘doy, don hamda ingliz tilidagi bread, rice, wheat, grain kabi leksemalar kiradi. Ushbu birliklar insonning kundalik hayoti va asosiy oziq-ovqat ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, maqollar tarkibida tirikchilik, mehnat, moddiy ta’minot, farovonlik, rizq-ro‘z, qanoat va hayotiy ehtiyoj kabi tushunchalarni ifodalaydi. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari nomlari ishtirok etgan maqollarning semantik xususiyati shundaki, ularda muayyan mahsulot nomi ko‘pincha umumiy moddiy ne’matlar, insonning hayotiy ehtiyojlari yoki mehnat natijasini ifodalovchi ramziy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, o‘zbek tilida non leksemasi oddiy oziq-ovqat mahsuloti ma’nosi bilan cheklanmay, tirikchilik manbai, halol mehnat mahsuli, rizq va baraka tushunchalarini ham anglatadi. Ingliz tilidagi bread leksemasi ham bir qator paremiologik birliklarda insonning yashash vositasi, moddiy ta’minoti va hayot uchun zarur ehtiyojlarini ifodalaydi.

Bread is the staff of life.

Maqolda bread leksemasi asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatidagi denotativ ma’nosidan kengayib, inson hayotini ta’minlovchi eng zarur ne’matning ramziy ifodasiga aylangan. Staff of life metaforik birikmasi nonni hayotning tayanchi sifatida talqin qiladi. Maqolda nonning inson hayotidagi o‘rni umumlashtirilgan bo‘lib, moddiy ehtiyojlarni qondirish hayot davomiyligining muhim sharti sifatida baholanadi. Bunda oziq-ovqat mahsulotining predmetlik ma’nosi mavhum hayotiy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.

Mazkur maqolda non leksemasi insonning kundalik iste’mol mahsuloti sifatida qo‘llangan bo‘lsa-da, maqolning umumiy semantik mazmuni odob-axloq va nutq madaniyati bilan bog‘liq. Maqolda ikki xil faoliyat non tishlash va gapirish o‘zaro qiyoslanadi. Birinchi harakat jismoniy ehtiyojni, ikkinchisi esa ijtimoiy muloqotdagi xulq-atvorni ifodalaydi.

Nonni katta tishlash birikmasi maqolda semantik qarama-qarshilik hosil qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Gapni katta gapirish esa maqtanchoqlik, manmanlik yoki o‘ylamasdan balandparvoz so‘zlash ma’nolarini bildiradi. Maqolning pragmatik maqsadi insonni kamtarlik, mulohazakorlik va me’yorni saqlashga undashdan iborat.

Tayyor taom nomlari. O‘zbek tilidagi osh, sho‘rva, bo‘tqa, sumalak hamda ingliz tilidagi broth, pudding, cake, soup,

pie kabi leksemalar bu guruhga mansubdir. Tayyor taom nomlari maqollar tarkibida insonning mehnat faoliyati, tajribasi, hamkorlik munosabatlari, ijtimoiy mavqei va kundalik turmushdagi xatti-harakatlarini baholash vositasi sifatida qo‘llanadi. Ushbu guruhdagi leksemalarning o‘ziga xos semantik xususiyati shundaki, tayyor taom muayyan jarayonning yakuniy mahsuli hisoblanadi. Shu sababli taom nomlari ishtirokidagi maqollarda ko‘pincha sabab, jarayon, natija munosabati aks etadi. Taom tayyorlash jarayoni inson faoliyatining ramziy modeli sifatida namoyon bo‘lib, uning natijasi mehnat sifati, tajriba va mas’uliyat bilan bog‘lanadi.

Too many cooks spoil the broth.

Maqolda broth leksemasi tayyor taomni anglatsa-da, uning kontekstual ma’nosi jamoaviy faoliyat natijasi bilan bog‘liq. Too many cooks birikmasi bir ishga haddan tashqari ko‘p kishining aralashuvini bildiradi. Spoil the broth esa ishning sifatsiz bajarilishi yoki kutilgan natijaning buzilishini anglatadi. Maqolning semantik asosida haddan tashqari aralshuv, salbiy natija munosabati mavjud. Bunda oshpazlar faoliyati jamoaviy ish jarayonining, sho‘rva esa ushbu faoliyat natijasining metaforik ifodasi hisoblanadi. Maqolning pragmatik funksiyasi kishilarni vazifalarni oqilona taqsimlash, mas’uliyatni aniq belgilash va ortiqcha aralashuvdan tiyilishga undashdan iborat. Shu jihatdan broth leksemasi oddiy taom nomidan tashkiliy faoliyat samaradorligini ifodalovchi ramziy birlik darajasiga ko‘tariladi.

The proof of the pudding is in the eating.

Mazkur maqolda pudding leksemasi tayyor taom nomini ifodalab, amaliy faoliyat natijasini baholashning obrazli vositasi sifatida qo‘llangan. Maqol mazmunida biror narsaning haqiqiy sifati uning tashqi ko‘rinishi yoki u haqidagi da’volar orqali emas, balki amalda sinab ko‘rish natijasida aniqlanishi ta’kidlanadi. Semantik jihatdan pudding leksemasi sinovdan o‘tkazilayotgan predmetning, eating harakati esa amaliy tekshiruv jarayonining ramziy ifodasi hisoblanadi. Mazkur maqolning konseptual asosini “haqiqiy sifat, amaliy tajriba orqali aniqlanadi” modeli tashkil etadi. Maqol tajriba va amaliyotning nazariy taxminlardan ustun bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Uning pragmatik vazifasi biror hodisa yoki faoliyatga baho berishda real natijalarga tayanish zarurligini uqtirishdir.

Osh ko‘p bo‘lsa, to‘y ko‘p.

Maqolda osh leksemasi tayyor taom nomi sifatida ishlatilgan bo‘lib, uning konnotativ mazmuni mo‘l-ko‘llik, mehmondo‘stlik, to‘kinlik va ijtimoiy birdamlik tushunchalari bilan bog‘lanadi. O‘zbek milliy madaniyatida osh nafaqat kundalik iste’mol qilinadigan taom, balki to‘y, marosim, mehmondorchilik va jamoaviy yig‘inlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli osh komponenti ayrim paremiologik birliklarda moddiy farovonlik bilan bir qatorda, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar va mehmondo‘stlik qadriyatlarini ham ifodalaydi.

Mazkur maqolda osh va to‘y leksemalari o‘rtasida assotsiativ-semantik bog‘lanish yuzaga kelgan. Oshning ko‘pligi to‘kinlikni, to‘y esa quvonch, jamoaviylik va bayramona muhitni bildiradi.

Ingliz tilidagi broth va pudding komponentli maqollarda tayyor taom ko‘proq faoliyatni tashkil etish, amaliy tajriba va natijani baholashning obrazli vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi osh komponentli maqollarda esa taomning mehnat natijasi bo‘lishi bilan birga, uning mehmondo‘stlik, to‘kinlik va jamoaviy munosabatlar bilan bog‘liq milliy-madaniy xususiyatlari ham ko‘zga tashlanadi. Demak, tayyor taom nomlari har ikkala tilda predmetlik ma’nosidan mavhum ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni ifodalashga o‘tadi, biroq ularning konnotativ va assotsiativ mazmunida muayyan lingvomadaniy farqlar kuzatiladi.

Taom masalliqlari va qo‘shimchalari. Mazkur leksik-semantik guruh o‘zbek tilidagi tuz, asal, yog‘, tuxum, shakar hamda ingliz tilidagi salt, honey, butter, egg, sugar kabi birliklarni qamrab oladi. Ushbu leksemalar maqollar tarkibida insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, me’yor, ehtiyotkorlik, foyda va zarar, moddiy manfaat hamda hayotiy tajribani ifodalashda muhim semantik vazifani bajaradi.

Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurma.

Mazkur maqolda tuz leksemasi ovqatga qo‘shiladigan mahsulot nomi sifatidagi denotativ ma’nosidan chetlashib, yaxshilik, mehmondo‘stlik va ko‘rsatilgan yordamning ramziy ifodasiga aylangan.

Tuzini yemoq birikmasi kimningdir yaxshiligidan bahramand bo‘lish, uning yordami yoki mehmondo‘stligini qabul qilish ma’nosini anglatadi. Tuzlig‘iga tupurmoq esa shu yaxshilikka nisbatan noshukurlik qilish, ishonchni suiiste’mol etish yoki xiyonatkorona munosabat bildirishni ifodalaydi.

You can't make an omelette without breaking eggs.

Maqolda eggs leksemasi taom tayyorlash uchun zarur masalliqni ifodalaydi. Biroq maqolning umumiy semantik mazmuni muayyan natijaga erishish jarayonida ayrim qurbonliklar yoki noqulayliklar yuzaga kelishi mumkinligi haqidagi umumlashgan hayotiy tajribaga asoslanadi.

Breaking eggs birikmasi muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan yo‘qotish, xarajat yoki qiyinchilikning metaforik ifodasi hisoblanadi. Making an omelette esa ko‘zlangan maqsadga erishishni bildiradi.

Taom masalliqlari va qo‘shimchalari nomlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bevosita iste’mol mahsuloti ma’nosidan tashqari, insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini baholovchi ramziy birlik sifatida qo‘llanishi mumkin. Xususan, tuz leksemasi o‘zbek tilida hurmat, sadoqat, yaxshilik va minnatdorlik tushunchalari bilan assotsiativ bog‘lanadi. Ingliz tilida esa salt komponenti qatnashgan ayrim maqol va turg‘un ifodalarda me’yor, ehtiyotkorlik yoki qadriyat tushunchalari ifodalanadi.

Taom tayyorlash va iste’mol qilish jarayoniga oid birliklar. Mazkur leksik-semantik guruh o‘zbek tilidagi tuz, asal, yog‘, tuxum, shakar hamda ingliz tilidagi salt, honey, butter, egg, sugar kabi birliklarni qamrab oladi. Ushbu leksemalar maqollar tarkibida insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, me’yor, ehtiyotkorlik, foyda va zarar, moddiy manfaat hamda hayotiy tajribani ifodalashda muhim semantik vazifani bajaradi. You have to eat a peck of dirt before you die.

Maqolda eat fe'li odatiy ovqatlanish harakatini bildirish bilan birga, hayot davomida turli noqulaylik va qiyinchiliklarga duch kelishning obrazli ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Eat a peck of dirt birikmasi bevosita ma'noda katta miqdordagi kirni yutishni anglatsa, maqol kontekstida inson hayotining qiyinchilik va noxush tajribalardan xoli emasligini bildiradi.

Taom masalliqlari va qo'shimchalari nomlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bevosita iste'mol mahsuloti ma'nosidan tashqari, insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini baholovchi ramziy birlik sifatida qo'llanishi mumkin. Xususan, tuz leksemasi o'zbek tilida hurmat, sadoqat, yaxshilik va minnatdorlik tushunchalari bilan assotsiativ bog'lanadi. Ingliz tilida esa salt komponenti qatnashgan ayrim maqol va turg'un ifodalarda me'yor, ehtiyotkorlik yoki qadriyat tushunchalari ifodalanadi.

Taom komponentli maqollar semantikasini o'rganishda denotativ va konnotativ ma'nolarni farqlash muhim ahamiyatga ega. Denotativ ma'no leksik birlikning bevosita predmet yoki hodisani nomlash xususiyatini anglatsa, konnotativ ma'no ushbu birlik bilan bog'liq qo'shimcha baholovchi, hissiy, uslubiy va madaniy assotsiatsiyalarni qamrab oladi. Masalan, "Maqtov osh bilan non bo'lmas" maqolida osh va non leksemalari denotativ jihatdan muayyan oziq-ovqat mahsulotlarini bildiradi. Biroq maqol tarkibida ular insonning moddiy ehtiyojlari va real hayotiy manfaatlarini ifodalovchi obrazga aylanadi. Maqolning semantik mazmuni shundan iboratki, og'zaki maqtov, e'tirof yoki xushomad insonning real ehtiyojlarini qondirmaydi. Shu tariqa taom komponentlari moddiy natija va amaliy foydaning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilidagi "You can't have your cake and eat it too" maqolida esa cake leksemasi muayyan shirinlikni bildiradi. Maqolning ko'chma ma'nosi bir-biriga zid ikki manfaatdan bir vaqtning o'zida to'liq foydalanish imkonsizligini anglatadi. Bunda tortni saqlab qolish va uni iste'mol qilish o'rtasidagi mantiqiy ziddiyat hayotiy tanlovlar bilan bog'lanadi. Har ikki maqolda taom komponentlari muayyan predmetni nomlashdan umumlashgan hayotiy xulosani ifodalashga o'tadi. Ammo o'zbek maqolida amaliy manfaat va moddiy ehtiyoj ustuvor bo'lsa, ingliz maqolida o'zaro zid istaklar va tanlov zarurati asosiy semantik markazni tashkil etadi. Shunday qilib, maqollar tarkibidagi oziq-ovqat nomlari denotativ ma'nosini to'liq yo'qotmaydi, balki ushbu ma'no asosida yangi assotsiativ va konnotativ mazmun hosil qiladi. Bu jarayon paremiologik birliklarning obrazlilik xususiyatini kuchaytiradi.

You have to eat a peck of dirt before you die.

Mazkur maqolda eat fe'li odatiy ovqatlanish harakatini bildirish bilan birga, hayot davomida turli noqulaylik va qiyinchiliklarga duch kelishning obrazli ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Eat a peck of dirt birikmasi bevosita ma'noda katta miqdordagi kirni yutishni anglatsa, maqol kontekstida inson hayotining qiyinchilik va noxush tajribalardan xoli emasligini bildiradi. Bu yerda eat fe'li semantik kengayish natijasida istemol qilish, noxush tajribani boshidan kechirish munosabatini yuzaga keltiradi. Maqolning pragmatik funksiyasi hayotdagi ayrim noqulayliklarni tabiiy hol sifatida qabul qilishga undash bilan bog'liq.

Ingliz va o'zbek tillaridagi jarayon bildiruvchi komponentlarga ega maqollarda harakat va uning natijasi o'rtasidagi sabab-oqibat munosabati muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ekish, o'rish, pishirish va iste'mol qilish bilan bog'liq faoliyatlar insonning ijtimoiy va axloqiy hayotini tavsiflovchi metaforik modellarga asos bo'ladi. Mazkur birliklar orqali mehnatsevarlik, mas'uliyat, sabr-toqat, ehtiyotkorlik va o'z faoliyati natijasini anglash kabi qadriyatlar ifodalanadi. Taom komponentli maqollarning semantik tuzilishi ularning tarkibidagi leksik birliklarning denotativ ma'nosi va yaxlit maqolning umumlashgan mazmuni o'rtasidagi munosabat asosida shakllanadi. Chog'ishtirilayotgan tillarda oziq-ovqat nomlari maqollar tarkibida predmetlik ma'nosidan tashqari mehnat, tirikchilik, natija, qanoat, ehtiyotkorlik va ijtimoiy munosabatlarga oid qo'shimcha mazmunlarni ifodalashi mumkin.

Xulosa. Taom komponentli maqollarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini tadqiq etish natijasida ushbu paremiologik birliklar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Ingliz va o'zbek tillaridagi taom komponentli maqollarni chog'ishtirma o'rganish ularning semantik tuzilishi, obrazlilik xususiyatlari, ko'chma ma'no hosil qilish mexanizmlari hamda lingvomadaniy mazmunida umumiy va milliy-madaniy jihatdan farqlanuvchi xususiyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, taom nomlarini ifodalovchi bread, salt, milk, honey, egg, cake kabi inglizcha hamda non, tuz, sut, asal, osh, yog' kabi o'zbekcha leksemalar maqollar tarkibida o'zlarining birlamchi lug'aviy ma'nolaridan tashqari, turli ko'chma va ramziy ma'nolarni ham ifodalaydi. Xususan, non va bread komponentlari tirikchilik, mehnat, moddiy farovonlik va hayotiy ehtiyoj tushunchalari bilan bog'lansa, asal va honey leksemalari shirinlik, yoqimlilik hamda insonlararo munosabatlarning ijobiy jihatlarini ifodalashda qo'llanadi. Bunday semantik kengayishlar taom nomlarining konkret predmetni bildiruvchi birlikdan mavhum axloqiy, ijtimoiy va madaniy tushunchalarni ifodalovchi vositaga aylanishini namoyon etadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi taom komponentli maqollarning semantik jihatdan o'xshashligi insoniyatga xos umumiy qadriyatlar, jumladan, mehnatsevarlik, tejamkorlik, qanoat, saxovat, ehtiyotkorlik va donolik tushunchalari bilan izohlanadi. Biroq ularning obrazli ifodalanishida har bir xalqning tarixiy turmush tarzi, oziq-ovqat madaniyati, urf-odatlari hamda milliy mentaliteti bilan bog'liq tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, o'zbek maqollarida non, osh va tuz komponentlarining faol qo'llanishi xalqning mehmondo'stlik, rizq-ro'z va dasturxon bilan bog'liq qadriyatlarini ifodalasa, ingliz maqollarida bread, pudding, egg va cake kabi birliklar orqali kundalik hayotiy tajriba, amaliy fikrlash va pragmatik munosabatlar obrazli ifodalanadi. Tadqiqot davomida taom komponentli maqollarning semantik shakllanishida metafora, metonimiya, ramziylashtirish va ma'no ko'chish jarayonlari muhim o'rin tutishi kuzatildi. Ayniqsa, taom nomlari orqali insonning xarakteri, xatti-harakati, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy fazilatlarini baholash mazkur maqollarning nafaqat

nominativ, balki baholovchi, didaktik va pragmatik vazifalarni ham bajarishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq, 2005. - 512 b.
[2] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I–III tomlar. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960–1963.
[3] Maslova V.A. Лингвокультурология. - Москва: Академия, 2001. - 208 с.
[4] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - 2-е изд. - Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. - 381 с.
[5] Mieder W. Proverbs: A Handbook. - Westport, CT: Greenwood Press, 2004. - 304 p.
[6] Mieder W., Dundes A. (eds.). The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. - New York: Garland Publishing, 1981.
[7] Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. - Berlin; New York: Mouton, 1985. - 213 p.
[8] Speake J. (ed.). The Oxford Dictionary of Proverbs. - 6th ed. - Oxford: Oxford University Press, 2015.
[9] Taylor A. The Proverb. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931.
[10] Dundes A. On the Structure of the Proverb // Proverbium. - 1975. - Vol. 25. - P. 961–973.
[11] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
[12] Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. - New York: Oxford University Press, 1997.
[13] Fernando C. Idioms and Idiomaticity. - Oxford: Oxford University Press, 1996.
[14] Dobrovol’skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. - Amsterdam: Elsevier, 2005.
[15] Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. - Oxford: Oxford University Press, 2002.